

Oliy ta'lim tashkilotida tyutorlarning choraklik hisobotlarini onlayn taqdim etish yuzasidan platformada alohida e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan

YO'NALISHLAR

I. Normativ-huquqiy va ichki hujjatlardan xabardorligi hamda talabalar o'rtasida targ'ib qilishi:

a) tyutorning amaldagi qonunchilik hujjatlari, filialning "Odob-axloq kodeksi", ichki tartib-qoidalar va boshqa ichki hujjatlar bo'yicha ishtirok etgan; tadbirlar soni 1

Samarqand filialida yosh xodimlar ishtirokida davra suhbat tashkil etildi. avra suhbat davomida Yoshlar masalalari bo'yicha direktorning birinchi o'rinbosari X.I.Turdibekov hamda kadrlar bo'limi boshlig'i M.S.Abduraxmanovlar tomonidan yosh xodimlarni tanlash, tayyorlash va tarbiyalash tizimini kuchaytirish choralari ko'rib borish, ular uchun huquqiy madaniyat, davlat xizmatchilarining kasbiy etikasi, xizmat intizomi va mas'uliyatni oshirish yo'llari haqida atroflicha fikr-mulohazalar bildirildi.

<https://t.me/TDIUSamfilial/33143>



b) talabalarga amaldagi qonunchilik hujjatlari, filialning "Odob-axloq kodeksi", ichki tartib-qoidalar va boshqa ichki hujjatlari bo'yicha tashkil etilgan tadbirlar soni 1 ishtirokchilar soni 56

Samarqand filialida 14-sentyabr kuni Buxgalteriya hisobi va moliya fakulteti tyutori B. A. Ablakulov tomonidan BI-125 va BI-225 guruh talabalari bilan uchrashuv o'tkazilib, unda talabalar Odob-axloq kodeksi bilan tanishtirildi. Uchrashuv davomida Odob-axloq kodeksining mazmun-mohiyati, talabalarning huquq va majburiyatlari, ta'lim muassasasida o'zini tutish qoidalar hamda akademik halollik tamoyillari haqida batafsil ma'lumot berildi. Shuningdek, talabalarda mas'uliyat, intizom va yuksak madaniyatni shakllantirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.



II. Talabalarning darsdan tashqari vaqtlarini samarali tashkil etish:

c) mavjud to'garaklar soni ishtirokchilar soni 8 ta ishtirokchilar soni 131

Ingiliz tili to'garagi-18 nafar, Soliqchi to'garagi- 16 nafar, Rus tili to'garagi- 20 nafar, IT fan klubi to'garagi – 13 nafar, Zamonaviy buxgalteriya hisobi to'garagi – 28 nafar, Futbol to'garagi – 19 nafar, Volleybol to'garagi – 9 nafar, Stol tennisi to'garagi- 8 nafar

a) ARM haqida jalb qilingan talabalar soni 2 o'tkazilgan tadbirlar ishtirokchilar soni 60

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali Axborot -resurs markazi xodimlari yangi qabul qilingan birinchi kurs talabalariga kutubxona faoliyati to'g'risida ma'lumot berib o'tishdi. Tanishtiruv davomida kitob fondlari, kutubxonaga a'zo bo'lish qoidalari, kutubxonaning bo'limlari, tezkor kutubxona bazasi, telegram kanallari, elektron saytlar haqida to'xtalib o'tishdi. Talabalar kutubxona faoliyati to'g'risida ko'plab ma'lumotlarga ega bo'lishdi

<https://t.me/TDIUSamfilial/30307>



Samarqand filialida talabalar o'rtasida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va o'qishga qiziqishni oshirish maqsadida “Kitobga bo'lgan mehr” mavzusida davra suhbat tashkil etildi.

Ushbu tadbirda “Buxgalteriya hisobi va moliya” fakulteti tyutorlari hamda talabalari faol ishtirok etishdi.

<https://t.me/TDIUSamfilial/30239>



b) talabalarning shaxsiy va kasbiy qiziqishlarini rivojlantirishga qaratilgan yakka va jamoaviy maslahatlar berilgan tadbirlar soni 3 ishtirokchilar soni 40

c) talabalarni filial yaqinida joylashgan adabiyot, sport, san'at, madaniyat va kasbga yo'naltiruvchi to'garaklar soni 5 ishtirokchilar soni 70

d) talabalarning teatr, muzey va boshqa ko'ngilochar maskanlarga tashriflar soni 5 ishtirokchilar soni 70

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali Buxgalteriya hisobi va moliya fakulteti tyutori B. A. Ablakulov o'ziga biriktirilgan BI-125 va BI-225-guruh talabalari bilan birgalikda Pushkin nomidagi kutubxonaga ma'rifiy ekskursiya tashkil etdi. Ekskursiya davomida talabalar kutubxonaning boy kitob fondi, elektron resurslari hamda o'quv zallarining imkoniyatlari bilan yaqindan tanishdilar.

<https://t.me/TDIUSamfilial/30335>



Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali Buxgalteriya hisobi va moliya fakulteti tyutori B. A. Ablakulov o'ziga biriktirilgan Bank ishi yo'nalishi 125- va 225-guruh talabalari bilan birgalikda O'zbekiston va Xitoy merosi ekspozitsiyasi hamda Diniy bag'rikenglik muzeyiga borishdi

<https://t.me/TDIUSamfilial/30358>



Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali. Buxgalteriya hisobi va moliya fakulteti tyutori B.A.Ablakulov o'ziga biriktirilgan MT-324 guruhi talabalari bilan Samarqand shahrining eng mashhur tarixiy maskanlaridan biri – Go'ri Amir maqbarasiga ma'naviy-ma'rifiy sayohat qilishdi. Sayohat davomida talabalar buyuk sarkarda va davlat arbobi Amir Temur maqbarasi, uning tarixiy ahamiyati, me'moriy uslubi va o'ziga xos naqshlari bilan yaqindan tanishdilar.

<https://t.me/TDIUSamfilial/31002>



2025-yil 9-oktabr kuni TDIU Samarqand filiali “Buxgalteriya hisobi va moliya” fakulteti tyutori B. Ablakulov boshchiligidagi talabalar “Milliy qadriyatlar va ularning millat ma’naviyatidagi o‘rni” shiori ostida Samarqand shahrining diqqatga sazovor joylari va tarixiy obidalariga sayohat uyushtirdilar.

<https://t.me/TDIUSamfilial/31041>



29-oktyabr kuni Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filialining Buxgalteriya hisobi va moliya fakulteti tyutori B.A. Ablakulov o‘ziga birlashtirilgan MT-125 hamda MT-225 guruh talabalari bilan birgalikda Afrosiyob muzeyiga ekskursiya tashkil etdi. Ekskursiya davomida talabalar Samarqand shahrining qadimiy tarixi, Afrosiyob yodgorliklari, shuningdek, muzeyda saqlanayotgan bebaho tarixiy eksponatlar bilan yaqindan tanishdilar.

<https://t.me/TDIUSamfilial/31808>,



III. Ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar, tanlovlar, festivallar va olimpiadalarni targ‘ib qilish hamda talabalarni jalb qilishdagi faolligi:

a) madaniy sohada tashkil etilgan tadbirlar soni 3 ishtirokchilar soni 74

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali Buxgalteriya hisobi va moliya fakulteti tyutori B.A. Ablakulov tashabbusi bilan talabalarning ishtirokida “Milliy qadriyatlar va ularning millat ma’naviyatidagi o‘rni” shiori ostida ma’rifiy tadbir tashkil etildi.

<https://t.me/TDIUSamfilial/31109>,



Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali ta'lim-tarbiya maslahatchilari va talabalari Samarqand viloyat musiqali drama teatrida yozuvchi va jurnalist Farmon Toshev qalamiga mansub "Millat fidoyisi" spektaklini tomosha qilishdi. Asarda SSSR Oliy sudi tomonidan Badriddin Sharipov va Sa'dulla Qosimovning oliy jazoga hukm qilinishi jarayoni sahnaviy talqinda yoritilgan bo'lib, u o'z davridagi markazning shovinistik siyosatiga qarshi milliy ruh va fidoyilik g'oyalarini aks ettiradi.

<https://t.me/TDIUSamfilial/31556>



a. ilmiy-ijodiy sohada tashkil etilgan tadbirlar soni **1** ishtirokchilar soni **46**
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filialida "Iqtisodiyot" fakulteti 1-kurs talabalari uchun maxsus uchrashuv bo'lib o'tdi. Tadbirda Prezident va nomli davlat stipendiyalari bo'yicha imkoniyatlar, ilmiy-innovatsion tanlovlarda ishtirok etish tartiblari hamda talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini samarali tashkil etish masalalari muhokama qilindi.

<https://t.me/TDIUSamfilial/30408>



b) sport bo'yicha tashkil etilgan tadbirlar soni **3** ishtirokchilar soni **48**
2025-yil 16-sentabr kuni Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali Buxgalteriya hisobi va moliya fakulteti tyutori B. A. Ablakulov tashabbusi bilan MT-125 va BI-225 guruh talabalari o'rtasida kiber sport musobaqasi tashkil etildi. Musobaqa mashhur Counter-Strike o'yini bo'yicha o'tkazilib, talabalar jamoaviy ishlash, tezkor qaror qabul qilish va strategik fikrlash ko'nikmalarini sinovdan o'tkazishdi. <https://t.me/TDIUSamfilial/30385>



Joriy yilning 22-sentabr kuni Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali "Buxgalteriya hisobi va moliya fakultetida" sport o'yinlariga start berildi.

Yoshlarining bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ularni sog'lom turmush tarziga jalb etish va jismoniy faolligini oshirish maqsadida Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filialida 5 tashabbus loyihasi doirasida qator sport tadbirlari boshlandi.

<https://t.me/TDIUSamfilial/30580>



6-noyabr kuni fakultet tyutorlari O.S.Norboyev va B.A.Ablakulov tashabbusi bilan BI-125 hamda BH-225 guruh talabalari o'rtasida kiber sport musobaqasi o'tkazildi. Musobaqa davomida talabalar tezkor fikrlash, strategik yondashuv va jamoaviy hamkorlik ko'nikmalarini namoyon etishdi. Har bir ishtirokchi g'alaba uchun kurashar ekan, zalda haqiqiy raqobat va ijobiy energiya hukm surdi!

[https://t.me/TDIUSamfilial/31975,](https://t.me/TDIUSamfilial/31975)



c) ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar soni 1 ishtirokchilar soni 64

"O'zbekiston – millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik yurti" madaniyat festivali Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filialida bo'lib o'tdi! Filialda noyabr oyi davomida respublikamizdagi milliy madaniy markazlar bilan hamkorlikda Madaniyat kunlari tashkil etildi. Mazkur tashabbus doirasida turli millat va elatlarning urf-odatlarini, san'ati, milliy qadriyatlarini birlashtirgan katta Madaniyat festivali o'tkazildi.

[https://t.me/TDIUSamfilial/32518,](https://t.me/TDIUSamfilial/32518)



- c) o'z tashabbusi tashkil etilgan tadbirlar soni **1** ishtirokchilar soni 54 Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filialida, Buxgalteriya va moliya fakulteti talabalari hamda Ta'lim tarbiya maslahatchisi B.Ablakulov ishtirokida Xojimatov Nosir hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan ma'naviy-ma'rifiy davra suhbat tashkil etildi.

Xojimatov Nosir — qatag'on qurbonlari orasidagi eng yorqin, yetakchi siymolardan biri bo'lib, uning el-yurt oldidagi xizmatlari, jasorati va mustahkam irodasi tariximizda o'chmas iz qoldirgan.<https://t.me/TDIUSamfilial/32363>



- d) milliy bayramlar bo'yicha tashkil etilgan tadbirlar soni **1** ishtirokchilar soni 37 Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filialida mustaqillikning 34 yilligi munosabati bilan endigina talabalik baxtiga erishgan yoshlar uchun "Mustaqillik darslari" tashkil qilindi. "Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!" shiori ostida o'tkazilgan mazkur darslarda yoshlarga mustaqillik qadri, Vatanga sadoqat, millatga mehr va xalq oldidagi mas'uliyat haqida so'z yuritildi

<https://t.me/TDIUSamfilial/30104>,



- e) tanlovlar bo'yicha tashkil etilgan tadbirlar soni **3** ishtirokchilar soni 65 2025-yil 25-sentabr kuni TDIU Samarqand filialida "Amir Temur vorislari" spartakiadasi g'oliblari tantanali tarzda taqdirlandi. Talabalar sportning turli yo'nalishlarida o'z mahoratini namoyon etib, do'stlik va hamjihatlik ruhida bellashdilar.

G'olib va sovrindor jamoalarga diplom hamda esdalik sovg'alari topshirildi.

<https://t.me/TDIUSamfilial/30732?single>,



O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'i qabul qilinganining 34 yilligi munosabati bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali "Buxgalteriya hisobi va moliya" fakulteti talabalari o'rtasida insholar tanlovi o'tkazildi.

Talabalarimiz o'z ijodlarida so'zning kuchi, bayrog'imizning beqiyos go'zalligi va milliy g'ururni yuksak mahorat bilan ifoda etib, bayrog'imiz 34 yillik tantanalariga o'z ijodiy tuhfa-larini qo'shdilar. <https://t.me/TDIUSamfilial/32327>



Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filialida — “ANTIKORRUPSIYA BILIMDONI” g'oliblari aniqlandi!

Bugungi intellektual maydonda haqiqiy bilimlar to'qnashuvi, sahna mahorati va korrupsiyaga qarshi qat'iy pozitsiyalar namoyishi yuz berdi. Jamoalar o'z kreativligi bilan tadbirga yorqin ruh baxsh etdi, filialimiz esa yana bir bor yoshlarning salohiyatiga boy ekanini isbotladi! <https://t.me/TDIUSamfilial/32665>,



f) festivallar bo'yicha tashkil etilgan tadbirlar soni 3 ishtirokchilar soni 48

“Sport va milliy o'yinlar festivali” – yoshlarda qadriyat va jismoniy faollik uyg'oq!

2025-yil 24-iyun kuni Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali Iqtisodiyot fakultetida talabalar o'rtasida “Sport va milliy o'yinlar festivali” bo'lib o'tdi. Tadbir yoshlarga xalqimizning boy madaniy merosi va urf-odatlarini eslatish, ularni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash maqsadida tashkil etildi.

IV. Huquqbuzarlik, giyohvandlik va jinoyatchilikning oldini olish hamda talabalarni profilaktik tadbirlarga jalb qilishdagi faolligi:

a) korrupsiya bo'yicha tashkil etilgan tadbirlar soni 3 ishtirokchilar soni 64

2025-yil 11-sentabr kuni Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filialida Buxgalteriya hisobi va moliya fakultetining 2-bosqich talabalari ishtirokida “Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatni shakllantirish” mavzusida profilaktik tadbir bo‘lib o‘tdi. Tadbirda Komplyans nazorat bo‘limi boshlig‘i A. Axmedov hamda Buxgalteriya hisobi va moliya fakulteti tyutori B. A. Ablakulov MT-124 va MT-224 guruh talabalari bilan uchrashdilar.

<https://t.me/TDIUSamfilial/30311>



Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filialining Buxgalteriya va moliya fakultetida BH-125, BH-225 hamda ST-125 guruhlari talabalari uchun “Milliy qadriyatlar va ularning millat ma’naviyatidagi o‘rni” shiori ostida davra suhbat bo‘lib o‘tdi. Filial Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi boshlig‘i A. Axmedov Askarovich ishtirokida hamda Buxgalteriya hisobi va moliya fakulteti tyutori B. A. Ablakulov

“Korrupsiyaga qarshi kurash” mavzusida targ‘ibot-tashviqot tadbiri o‘tkazildi.

<https://t.me/TDIUSamfilial/31262>



“Ijtimoiy tafakkur” ilmiy fan klubi tashabbusi bilan “Korrupsiyaga qarshi ta’lim” mavzusida navbatdagi trening kursi bo‘lib o‘tdi. Mazkur trening “Tabiiy, ijtimoiy fanlar va jismoniy madaniyat” kafedrasida tashkil etilib, talabalar bilan ochiq muloqot shaklida o‘tkazildi.

<https://t.me/TDIUSamfilial/31309>,



- b) Diniy ekstremizm bo'yicha tashkil etilgan tadbirlar soni **1** ishtirokchilar soni 54
27-noyabr kuni Buxgalteriya hisobi va moliya fakulteti tyutori B. A. Ablakulov hamda profilaktika inspektori D. Shodmonov tomonidan MT-125 va MT-225 guruh talabalari bilan mazmunli va foydali davra suhbat tashkil etildi. Asosiy maqsad — yoshlarni yot g'oyalardan himoya qilish! Uchrashuv davomida diniy ekstremizmning mohiyati, uning jamiyat va shaxs hayotiga tahdidlari hamda unga qarshi kurashishning samarali yo'llari haqida muhim ma'lumotlar berildi. Tadbir ishtirokchilari xavfsizlik madaniyatini shakllantirish, ongli fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlash borasida zarur tavsiyalar bilan tanishdilar.

<https://t.me/TDIUSamfilial/32647?single>



- c) huquqbuzarlik bo'yicha tashkil etilgan tadbirlar soni **1** ishtirokchilar soni 48
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali Buxgalteriya hisobi va moliya fakultetida filial profilaktika inspektori D. Shodmonov, tyutor B.A. Ablakulov va talabalar ishtirokida "Kiberxavfsizlik — zamon talabi" mavzusida davra suhbat o'tkazildi.



- d) jinoyatchilikni oldini olish bo'yicha tashkil etilgan tadbirlar soni **1** ishtirokchilar soni **48**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali Buxgalteriya hisobi va moliya fakultetida filial profilaktika inspektori D. Shodmonov, tyutor B.A. Ablakulov va talabalar ishtirokida "Kiberxavfsizlik — zamon talabi" mavzusida davra suhbat o'tkazildi. Tadbir davomida internet tarmog'ida xavfsizlikni ta'minlash, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, firibgarlik va kiberhujumlardan saqlanish usullari haqida batafsil ma'lumot berildi.

<https://t.me/TDIUSamfilial/32044>,



V. Talabalarni turar joy bilan ta'minlash va ularning holidan xabar olish holati:

- a) talabalar turar joyida, ijarada, xususiy yoki yaqin qarindoshlarining uyida yashovchi talabalar haqida ma'lumotlar shakllantirilganligi yangilab borilgan
- b) o'quv yili davomida ijara xonadonlari bazasini (zaxira uchun) shakllantirilganligi shakllantirilgan

- e) talabalar turar joyida, ijarada, xususiy yoki yaqin qarindoshlarining uyida yashovchi talabalar holidan xabar olingan tadbirlar soni **1** ishtirokchilar soni **86**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filialida talabalar turar joyida Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha direktorning birinchi o'rinbosari X.I. Turdibekov, Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi boshlig'i T.A. Yuldashev, dekan o'rinbosarlari, tarbiyachi-pedagog va ta'lim-tarbiya maslahatchilari ishtirokida suhbat tashkil etildi. Suhbat davomida:

filial ichki tartib-intizomi, odob-axloq va shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya etish, umumiy ovqatlanish oshxonalaridan foydalanish,

“Is gazidan zaharlanish”ning oldini olish bo'yicha tushuntirishlar berildi.

<https://t.me/TDIUSamfilial/30111>



Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali Yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti tomonidan 1-dekabrda 8-dekabr sanasigacha amalga oshirilgan ishlar dayjesti bilan tanishing:

“Qalqon” jamoatchilik guruhi a'zolari tomonidan ijara xonadonlarida istiqomat qilayotgan talabalarni yashash sharoitlari o'rganildi.

https://t.me/TDIU_SF_Yoshlari/6959



- c) talabalar turar joyida, ijarada, xususiy yoki yaqin qarindoshlarining uyida yashovchi talabalarda mavjud muammolar bartaraf etilganligi yoki masala yuzasidan mas'ullarga axborot kiritilganligi **soni 5**

d) **VI. Mahalla va ota-onalar bilan hamkorligi hamda ijtimoiy himoyaga muhtoj talabalar bilan ishlashdagi faolligi:**

- f) ota-onalar bilan aloqa o'rnatilganligi o'rnatilgan

g) ota-onalar yig'ilishlarini (onlayn yoki oflayn) tashkil etilganligi tadbirlar soni 2 ishtirokchilar soni 5

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali Buxgalteriya hisobi va moliya fakulteti tyutori B.A. Ablakulov tomonidan dars mashg'ulotlarini muntazam qoldirib kelayotgan talabalarning ota-onalari bilan tushuntirish va ogohlantirish maqsadida suhbat o'tkazildi. Suhbat davomida talabalarning darslarga qatnashmasligi, sababsiz qoldirilgan mashg'ulotlar soni, bu holatning o'quv jarayoniga va yakuniy baholash natijalariga salbiy ta'siri haqida batafsil ma'lumot berildi. Ota-onalarga amaldagi ichki tartib-qoidalar, universitet nizomi hamda dars qoldirish bilan bog'liq intizomiy choralar tushuntirildi.



h) mahalla bo'yicha tashkil etilgan tadbirlar soni 1 ishtirokchilar soni 20

2025-yil 15-sentabr kuni Samarqand shahar Madadkor MFYda "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturi doirasida aholi o'rtasida kambag'allikni qisqartirish, bandlikni ta'minlash va ijtimoiy faollikni oshirish maqsadida uslubiy-amaliy tadbir tashkil etildi. Tadbirda filial Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha direktorning birinchi o'rinbosari, mahalla yettiligi, faollar hamda yoshlar ishtirok etdilar.

<https://t.me/TDIUSamfilial/30363>

